

ETNOLINGVISTIKA

Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrasи tarix fani o’qituvchisi

toshpulatovashaxnozashuhratovna@oxu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10656890>

Annotatsiya. Ushbu maqolada etnolingvistikaning o’rganilishi, shuningdek, etnolingvistikaning etnomadaniyat va til bilan aloqasi haqida ma’lumotlar berilgan. Etnolingvistika etnosning lingvistik xususiyati, ichki va xalqaro munosabatlardagi etnolingvistik jarayonlar, tilning etnik jamoalarining shakllanishi va faoliyatida tutgan o’rni, til va an’anaviy madaniyat, tafakkurning etnik o’ziga xosligi, jahon tillarining etnolingvistik tasnifidir.

Kalit so’zlar: etnolingvistika, etnologiya, etnolisoniy, nomshunoslik (onomastika), areal (hududiy) lingvistika, lingvistik jo‘g’rofiya, dialektologiya (shevashunoslik), til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik.

ETHNOLINGUISTICS

Abstract. This article provides information on the study of ethnolinguistics, as well as the relationship between ethnolinguistics and ethnoculture and language. Ethnolinguistics is the linguistic feature of ethnos, ethnolinguistic processes in internal and international relations, the role of language in the formation and activity of ethnic communities, language and traditional culture, ethnic identity of thought, ethnolinguistic classification of world languages.

Key words: ethnolinguistics, ethnology, ethnolinguistics, onomastics, areal (territorial) linguistics, linguistic geography, dialectology (dialectology), language history, sociolinguistics, cartography.

ЭТНОЛИНГВИСТИКА

Аннотация. В данной статье представлены сведения по изучению этнолингвистики, а также взаимосвязи этнолингвистики с этнокультурой и языком. Этнолингвистика – лингвистическая особенность этноса, этнолингвистические процессы во внутренних и международных отношениях, роль языка в формировании и деятельности этнических общностей, язык и традиционная культура, этническое своеобразие мышления, этнолингвистическая классификация мировых языков.

Ключевые слова: этнолингвистика, этнология, этнолингвистика, ономастика, ареальная (территориальная) лингвистика, лингвогеография, диалектология (диалектология), история языка, социолингвистика, картография.

Etnolingvistika— tilshunoslikning til va til egasi bo‘lgan xalq orasidagi bog‘liqlik hamda munosabatlarni, til rivoji vazifaviy xususiyatlariga lisoniy, etnik omillarning birgalikdagi ta’sirini o’rganuvchi sohasi. Til bilan etnik xususiyatlarning o‘zaro munosabati, bir-biriga ta’siri ikki tomonlama bo‘ladi:

–etnik omillar (etnosning urf-odatlari, milliy an’analari, falsafiy, diniy qarashlari va boshqalar) ning til rivojiga ta’siri

–til vazifaviy imkoniyatlarining etnos va etnik xususiyatlarning shakllanishiga ijobiy ta’siri.

Etnolingvistika til va uning rivojiga turli etnik guruhlarning qanchalik hissa qo'shganini, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini tadqiq qiladi. Tilshunoslikning etnik onomastika, areal lingvistika, lingistik geografiya, dialektologiya, til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik sohalari etnolingvistika erishgan ilmiy natijalardan foydalanadi. Etnolingvistika ayniqsa, yozuvga ega bo'lmagan xalqlarning etnografiyasini o'rganishda, ularning tillaridagi etnik xususiyatlar bilan bog'liq lisoniy materiallarni to'plash va tadqiq qilishda qo'l keladi.

Ma'lumki, etnolingvistika — tilshunoslikning xalq (millat, elat) va uning tili orasidagi aloqa va munosabatni etnolisoniy (etnik madaniyat va etnik til mushtarakligi tamoyili) asosda o'rganuvchi soha.

U, asosan, ikki yo'naliшda ish ko'radi:

- xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsifiy asosda o'rganish;
- xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsiyaviy asosda o'rganish.

Birinchi maqsadni shartli ravishda tashqi va ikkinchisini ichki maqsad deyish mumkin. Til va etnik xususiyat munosabati, ularning bir-biriga ta'siri ikki yo'sinda kechadigan jarayon:

- etnik omil (urf-odat, an'ana, falsafiy, diniy qarashlar va h.) ning til rivojiga ta'siri;
- lisoniy omilning etnos (va etnik xususiyat) rivojiga ta'siri.

Deylik, bir xalqda etnik xususiyat (urf-odat, an'ana, falsafiy, diniy qarashlar) unutilib, bunga mos ravishda ularni ifodalovchi til birliklari ham faol lisoniy xazinadan chiqib, o'tmish voqeligiga aylana boradi. Natijada millat, xalq, elatning o'zligiga putur yeta boshlaydi. Millat, xalq, elat o'z ma'naviyatidan mahrum bo'lib boradi. Bu, muqarrar ravishda, faol leksikada ham o'z aksini topadi. Til leksikasida etnografik mikrosistema tanazzulga uchray boshlaydi. Bu etnik omillarning tilga ta'siridir. Pirovardida etnografik leksikaga ega bo'lmagan millat farzandlari ongidagi etnolisoniy bo'shliq g'ayriyot lisoniy unsurlar bilan to'lib boradi. Til va etnik xususiyat ta'sirini ajratish faqat tadqiqiy maqsadda bo'lib, bu ajratish nisbiy tabiatga ega, aslida ular yaxlit sodir bo'ladigan uzuksiz va uzzviy jarayon.

Etnolingvistika til va uning rivojiga etnik guruhlarning qanchalik xissa qo'shganini ham, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini ham tadqiq qiladi. Bu yuqorida aytilgan birinchi, tashqi maqsad uchun ahamiyatlairoq. Birinchi maqsadda ko'proq tavsifiy tadqiq metodikasi asosida ish ko'rildi.

Tilshunoslikning etnik nomshunoslik (onomastika), areal (hududiy) lingvistika, lingistik jo'g'rofiya, dialektologiya (shevashunoslik), til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik sohalari etnolingvistikaning mazkur tavsifiy usulda qo'lga kiritgan ilmiy natijalardan foydalanadi.

Etnolingvistika, ayniqsa, yozuvga ega bo'lmagan xalqlarning etnografiyasini o'rganishda, ularning tillaridagi etnik xususiyat bilan bog'liq lisoniy materiallarni to'plash va tadqiq qilishda ham o'zining birinchi maqsadini ko'proq namoyon qiladi. Etnografizmlarni o'rganish bevosita tarixiy etnologiya fanlari bilan bog'liq. Urf-odatlar, xalqlarning turmush tarzi va ular bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayonlarni etnologiya o'rgansa, urf-odat, an'analar leksikasi (etnografik leksika) — tilshunoslikning o'rganish obyekti. Har bir millat madaniyatini uning urf-odat, an'ana va qadriyatlardan ajratgan holda tassavvur etib bo'lmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizmlarni o'rganish milliy urf-odat va qadriyatlarni tadqiq etishda ahamiyatli. Urf-odatlar muayyan etnosning o'ziga xosliklarini namoyon etadi, butun etnografik sistemada lisoniy belgi

sifatida faol o‘ringa ega, shu jihatni bilan tilshunoslik uchun muhim. Har bir til leksik makrosistemasi alohida bir mikrosistemani tashkil etuvchi, etnografik tushunchani ifodalovchi leksemalar tizimi mavjud. Ushbu leksemalarni o‘rganish uchun tilshunoslikning maxsus sohasi — etnolingvistika shakllangan, u lingvistik soha sifatida lingvistik universaliyalarni ham, xususiy jihatlarni ham o‘rganadi. Shuning uchun umumiy va xususiy etnolingvistika farqlanadi. Umumiy etnolingvistika etnografik til hodisalarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi kabi umumiy masalalar bilan shug‘ullansa, xususiy etnolingvistika ayrim tillarga xos etnografizmlarni shu nuqtai nazardan tadqiq qiladi.

Keyingi yillarda tilshunoslik sohasida etnolingvistik tadqiqotlar faollashdi. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari jahon tilshunoslida xalq menentaliteti, ma’naviy madaniyat, xalq og‘zaki ijodi, mifologiya, folklore janrlarida etnolingvistika namunasi sifatida qayta tiklanadi. Etnolingvistika mustaqil fan sohasi sifatida XIX-XX asrlarda vujudga keldi va 1970-yillarda AQSh da rivojlandi. Jahon tilshunoslida sotsial-madaniy omillarning tilga ta’sirini D. X.Hames, H. Hoyer, G. M. Xoengisvald va Rossiyada muammoni o‘rganish F. I. Buslaev, A. N. Afanasyev, A. A. Potebnya nomlari bilan bog‘liq.

Tilshunoslikda etnografik tahlil uchun aksar hollarda xalq urf-odatlari, an’analariiga tegishli tushuncha nomlari obyekt sifatida olinadi. O‘zbek tilshunoslida etnografizmlar tadqiqiga, asosan, XX asrning 70–80-yillarida kirishildi. Sobiq Ittifoq davrida xalq urf-odatlariiga yetarli darajada e’tibor berilmasdan, ularning eskilik sarqiti deya baholanishi bu muammoga doir ilmiy tadqiqotlar doirasini ham cheklab qo‘yan. Bu boradagi ilk tadqiqot ishlarini A.Jo‘rboev va Z.Husainovalar amalga oshirdilar. A.Jo‘rboev tadqiqotda xalqimizning xilma-xil ko‘rinishga ega urf-odati mavjudligi va ularning tilimizdagli nomlari hamda ularni o‘rganishning nazariy-amaliy ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan. Bundan tashqari, urf-odat, an’ana ifodalari bo‘lgan etnografizmlar Sh.Nurullayeva, Y.Bobojonov kabi tadqiqotchilarining ishlarida formal tadqiq usullarida keng o‘rganilgan. M.Qahhorova esa etnografizmlarni lison nutq musanniyati asosida sistemaviy tadqiq qilgan. Turkiy tilshunoslikda etnografizmlar tadqiqiga M. I. Byatushgov, A. K. Apoyevkabilarning ilmiy izlanishlari ham katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Etnografizmlarni monografik planda tadqiq etish lingvistik birliklarning o‘zaro munosabatini ochishga, ularni maydon sifatida o‘rganishga qulay imkon yaratadi. O‘zbek tilidagi rasm-rusumlar bilan bog‘liq tushunchalarning nomlarini sistemaviy asosda maxsus o‘rganish ehtiyojidan kelib chiqib, turli urf-odatlari, marosimlar bilan bog‘liq tushunchalarni muayyan mikromaydonga birlashtirish va ularni semik jihatdan tahlil etish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Etnografizmlarning ichki tuzulishi va tuzilish birliklari o‘rtasidagi xilma-xil munosabatlarni ochish ham hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun katta ahamiyatga ega. Yuqoridaq ishlarda O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan o‘zbeklar urf-odatlari etnografizmlari o‘rganilgan.

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek elatlarining ham O‘zbekiston bilan mushtarak va o‘ziga xos etnografizmlari mavjud, ular ham o‘zbek millatining umumiy boyligi hisoblanadi. Ikki hudud orasida madaniy-ijtimoiy aloqalar doimo faol bo‘lgan. Aslida bir hududda yashovchi, bir xalqqa mansub ikki elning urf-odatlari ko‘proq umumiy, qisman o‘ziga xosliklarga ega. Bu o‘xshashlik va farqli xususiyatlarni to‘y marosim etnografizmlari misolida ham kuzatish mumkin. Afg‘oniston o‘zbeklari etnografizmlari, asosan, etnografiya hamda leksikografiyaga oid ishlarda, o‘z aksini topgan. Afg‘on ziyolilari Fayzullo Aymoq, Nurullo Oltoy, Ibrohim Rahim, Usmon Orif, Halim

Yorqin kabilarning ishlarida Shimoliy Afg'oniston o'zbek etnomadaniyatiga xos atamalarni uchratish mumkin. Ta'kidlash o'rinniki, etnografik leksika mavzu va hajmi jihatdan juda keng.

To'y marosimlariga oid etnografizmlar alohida o'rganishni taqozo etadi. O'zbek to'y marosimlarini o'rgangan H.Ismoilov o'zbek to'y marosimlarini quyidagi ma'noviy guruhlarga ajratadi:

- muhim sana bilan bog'liq to'ylar (tug'ilish to'yi, beshik to'yi, soch to'yi va boshq.);
- sunnat to'ylari;
- yigitlik to'ylari (yigitlik oshi, mo'ylov to'yi);
- nikoh to'yi (qiz ko'rish, non sindirish, to'qqiz taboq);
- to'y bilan birga o'tkaziladigan marosimlar (ijob to'yi, qiz oshi);
- to'ydan so'ng o'tkaziladigan marosimlar.

Bu ma'noviy guruqlar Shimoliy Afg'oniston o'zbek to'ylari uchun ham mos. Ammo ayrim urf-odatlар Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari o'zi uchungina xos. O'zbekistondagi urf-odatlardan tur va xususiyatlari jihatidan ma'lum darajada farqlanadi. Farqlar ko'proq to'y hodisalari nomlanishida namoyon bo'ladi. Misol uchun, "Qand sindi", "Farog'at to'yi", "Savod to'yi", "Mullo to'yi", "Moshin to'yi", "Shayton aralashma", "Xino qo'ydi" kabi to'y-marosim nomlari O'zbekistondagi o'zbeklar orasida uchramaydi. Bir vaqtlar O'zbekistonda ham amal qilgan "Moshin to'yi" bugungi kunda respublikaning ayrim tog'li hududlarda saqlanib qolgan.

REFERENCES

1. Надим, Хумаюн Мухаммед. Etnolingvistika va etnografik leksika haqida / Хумаюн Мухаммед Надим. — Текст : непосредственный // Молодой учёный. — 2019. — № 30 (268). — С. 147-149.
2. Sh. N. Baxtiyor qizi. Etnolingvistika / International scientific-online conference.
3. <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/2360/896>
4. Toshpo'latova, S. (2023). MS ANDREYEV-SCIENTIFIC CAREER. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
5. Toshpolatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF NATIONAL COSTUMES AND RITUALS OF TAJIKS IN THE WORKS OF M. S. ANDREYEV. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42–47. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-08>
6. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). M. S. ANDREYEV'S WAY OF LIFE. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655–659. Retrieved from <http://grnjurnal.us/index.php/STEM/article/view/2280>
7. Toshpo'latova, S. (2024). RELIGIOUS ANTHROPOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(1), 504–510. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28281>
8. Toshpulatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETYMOLOGY OF TAJIK MARRIAGE CEREMONY. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17–23. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-05>

9. Naimov, I. & Toshpo'latova, S. . (2023). MARRIAGE CEREMONY OF TAIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH ANDREYEV "TADJIKI DOLINI KHUF". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12–16.
10. Sh.Sh.Toshpo'latova, & I.N.Naimov. (2023). M.S. ANDREYEV – O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214–1222.
11. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF M. S. ANDREYEV - "ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404–409.
12. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAIKS IN THE RESEARCHES OF M.S. ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291–299.
13. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84–89.
14. Toshpo'latova S. S. (2023). TOJIKLAR MILLIY KIYIM-KECHAKLARI VA "BESHMORAK" MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(28), 395–401.
15. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
16. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
17. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEXANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
18. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
19. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
20. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69–75. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-12>
21. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. Научный Фокус, 1(6), 369-371.

22. Sadullayev, U. (2024). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. *Modern Science and Research*, 3(1), 607–613. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28343>
23. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
24. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30.
<https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
25. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
26. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
27. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722–727.
28. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
29. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
30. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
31. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
32. Xasanova, III. (2024). <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>
33. Xasanova, S. (2024). DIFFERENCE BETWEEN PROVERB AND SAYING. *Modern Science and Research*, 3(1), 140–147. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27853>
34. Shaxnoza Baxadirovna, X. (2023). PROVERBS IN THE LEXICOGRAPHICAL ASPECT. *International Journal of Formal Education*, 2(12), 429–437. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1771>
35. Xasanova, S. (2023). STRUCTURAL – SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(12), 619–625. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27109>
36. Xasanova, S., & murodova, D. (2023). REPRESENTATION OF THE SYSTEMIC RELATIONS OF RUSSIAN VOCABULARY IN PROVERBS AND SAYINGS. *Modern*

- Science and Research, 2(10), 276–280. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24346>
37. Xasanova, S. (2023). USING EXPRESSIVE VOCABULARY IN RUSSIAN PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>
38. Баходировна, Х. И. (2023). Гендерная Лексика В Русском Языке. International Journal of Formal Education, 2(11), 324–331. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1505>
39. Hasanova, S. (2023). SYSTEM RELATIONS IN THE RUSSIAN LANGUAGE VOCABULARY. *Modern Science and Research*, 2(9), 72–74. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23900>
40. Хасанова, Ш. Б. (2023). РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СИСТЕМНЫХ ОТНОШЕНИЙ РУССКОЙ ЛЕКСИКИ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1220-1226.
41. Gulamova D. (2024). EUPHEMISM INTERPRETATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 3(1), 817–823. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28458>
42. Gulamova, D. (2023). METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE CULTURE OF USING EUPHEMISMS IN 9TH GRADE NATIVE LANGUAGE CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(12), 483–493. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/26960>
43. Gulamova, D. I. (2023). 5-6-SINF ONA TILI DARSLARIDA EVFEMIZMLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.
44. Gulamova, D. I. (2023). EVFEMIZMLAR O 'QUVCHI NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA.
45. Vahobovna, S. G. (2021). Khoja Abdulkhaliq Ghijduvani And Its Method. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(10), 39-40.
46. G. (2024). SOLUTIONS, RESULTS AND PROBLEMS OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(1), 782–788.
47. Srojeva, G. (2023). LOWER ZARAFSHAN OASIS TOURISM OPPORTUNITIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 199–204.
48. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 670–675. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25751>
49. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 333–338. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1509>
50. Akmal B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. *Modern Science and Research*, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>

51. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
52. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
53. Ashurovich, B. A. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48-53.
54. Akmal, B. (2023). ANTIK VA ILK O 'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65-70.
55. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKHLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
56. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
57. Berdiyeva, S. (2023). BENEFITS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH ROLE-PLAYING ACTIVITIES. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 2(10), 723–729. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10034991>
58. Berdiyeva, S. (2023). A STORY-BASED APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(10), 262-266.
59. Berdiyeva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF ROLE PLAYING ACTIVITIES IN IMPROVING LEARNERS' LANGUAGE SKILLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 75-78.
60. Utkirovna, B. S. (2023). Characteristics of the Works of Charles Dickens. *European Science Methodical Journal*, 1(3), 24-28.